

Qo'yqirilganqal'a maqbarasidan topilgan o'tirgan ayol tasvirli ostodon haqida bilasizmi?

Qo'yqirilganqal'a maqbarasidan topilgan o'tirgan ayol tasvirli ostodon hozirda O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyida saqlanadi. Bu Muzey kolleksiyasidagi eng qadimgi ostodondir.



Ostodonlar — loy qutilardan iborat bo'lib, zardushtiylik taomili bo'yicha unga o'lgan odam suyaklari joylangan. Ostodonlar O'zbekistonning turli tumanlaridan topilgan, ular shakli, hajmi, ijro usuli, gul va naqshlari va tasvir syujetiga qarab xilma-xil bo'ladi. Ostodonlarning ayrimlarida o'lganga aza tutib yig'lash sahnalari aks ettirilgan, boshqa diniy ko`rinishlar ham uchraydi. Ostodonlardan birining qopqog'idagi dafn haykalchasi savlat to'kib o'tirgan yosh ayol qiyofasini aks ettiradi. Uslub jihatidan haykalcha zardushtiylik ilohini aks etdiruvchi haykalchalarga o'xshab ketadi. Qo'yqirilganqal'a qal'asi qadimgi Xorazmning mashhur yodgorliklaridan biri bo'lib, eramizdan avvalgi IV asrdan boshlab eramizning III - IV asrlarigacha davom etib kelgan zardushtiylikda dafn va sig'inish marosimlari o'tkaziladigan an'hanam hisoblangan. To'g'ri doiralar shaklida, tashqi va ichki devorlar bilan qurshalgan, bir-biridan 18-26 m. uzoqlikda joylashgan 9 ta

minorasi bor. Tashqi devordan 15 m. narida ibodatxonaning o'zi joylashgan bo'lib, diametri 40 m. keladi. Devorlarning saqlanib qolgan eng baland joyi — 7,5 m.